

QISHLOQ XO‘JALIGIDA TRANSPORT LOGISTIKASI

*Saidova Feruza**BuxDu, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi**Shoyimardonova Marjona**BuxDu, “Agrobiznes va investitsion faoliyat” ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligida transport logistikasining ahamiyati, asosiy muammolari va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilingan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining buziluvchanligi va mavsumiyliigi transport tizimiga alohida yondashuvni talab qiladi. Samarali logistika infratuzilmasini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va transport xarajatlarini optimallashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, transport logistikasi, samaradorlik, mahsulot yetkazib berish, innovatsiyalar.

Qishloq xo‘jaligi – dunyo iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, xomashyo yetkazib berish va aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo ushbu soha mahsulotlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega: ular tez buziluvchan, mavsumiy va ko‘p hollarda uzoq masofalarga yetkazilishi kerak. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi sohasida samarali transport logistikasi tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Transport- bu odamlar va yuklar tashishni amalga oshiruvchi, moddiy Ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi. Jamiyat ishlab chiqarishi tuzilmasida, transport moddiy xizmatlar ishlab chiqarish sohasiga mansub.

Moddiy oqimning birlamchi xom-ashyo manбайдan oxirgi iste‘molchigacha bo‘lgan xarakati davomidagi logistik operatsiyalarning anchagina qismi, turli xil transport vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Transport logistikasi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish joyidan iste‘molchiga yoki qayta ishlash korxonalariga yetkazib berish jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimidir. Bu tizim mahsulotlarning o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berilishini ta‘minlash: mahsulotning buzilish xavfini kamaytirish va uning bozorga o‘z vaqtida yetib borishini ta‘minlash; transport xarajatlarini optimallashtirish: yoqilg‘i va texnik xizmat xarajatlarini minimallashtirish; logistika zanjirining samaradorligini oshirish: Ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va iste‘molchi o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilash; texnologiyalardan foydalanish: transport va omborlar jarayonlarini avtomatlashtirish va nazorat qilish kabi asosiy vazifalarni bajaradi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari mavsumiy, buziluvchan va katta hajmda ishlab

chiqariladigan mahsulotlar bo'lgani sababli transport logistikasi samaradorligi mahsulotlarning bozordagi narxi va iste'molchi qoniqishiga bevosita ta'sir qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish turli transport vositalari yordamida amalga oshiriladi. Har bir transport turi o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Transport vositalarining turlari va sonini aniqlash vazifasi logistikaning boshqa masalalari bilan aloqadorlikda yechiladi. Muayyan bir tashish uchun optimal bo'lgan transport turini tanlash asos bo'lib bo'lib, transportning xar xil turlarining xususiyatlari to'g'risidagi axborot xizmat qiladi.

Avtomobil transporti moslashuvchan yo'nalishlar, qisqa masofalarda samarali, to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish kabi afzalliklarga ega bo'lsa, yoqilg'i sarfi yuqori, uzoq masofalarda kam samarali kamchiliklariga ega.

Qisqa va o'rta masofalarga meva, sabzavot, sut va go'sht mahsulotlarini tashishda keng qo'llaniladi.

Temir yo'l transport yirik hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga arzon narxda tashish imkoniyatlari mavjud, moslashuvchanlik past, mahsulotlarni yuklash va tushirish jarayonlari uzoq vaqt talab qiladi.

Don, paxta va boshqa katta hajmdagi mahsulotlarni tashishda ishlatiladi.

Havo yo'li transporti juda tezkor, buziluvchan mahsulotlar uchun ideal, kamchiliklari esa yuksak xarajatlar, kichik hajmdagi yuklar bilan cheklangan.

Tropik mevalar, kesilgan gullar va boshqa tez buziluvchan mahsulotlarni xalqaro bozorlarga yetkazishda ishlatiladi.

Dengiz va daryo transporti juda katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyati, arzon transport xarajatlari, sekin tashish, geografik cheklovlar kabi noqulayliklari mavjud.

Eksport va import mahsulotlar tashishida qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi transport logistikasining bir qancha muammolari mavjud hisoblanadi:

Infratuzilma yetishmovchiligi: Ko'p qishloq hududlarida yo'l sifati past, logistika markazlari va saqlash omborlari yetarli emas;

Transport vositalarining eskirganligi: eski texnologiyalar, sovutgichli transportlar yetishmasligi mahsulot sifatini yo'qotishiga olib keladi;

Tez buziluvchan mahsulotlar uchun maxsus sharoitlar yetishmasligi: harorat, namlik va bosimni nazorat qiluvchi maxsus transportlar har doim ham mavjud emas;

Yoqilg'i narxlarining barqaror emasligi: yoqilg'i narxlari doimiy o'zgarib turishi transport xarajatlarini oshiradi;

Malakali mutaxassislar yetishmasligi: Transport logistikasi sohasida yuqori malakali menejerlar va texnik mutaxassislar tanqisligi mavjud.

Qishloq xo'jaligi transport logistikasini takomillashtirish yo'llari:

Infratuzilmani yaxshilash: qishloq yo‘llarini ta‘mirlash va yangilarini qurish, logistika markazlari va sovutgichli omborlarni barpo etish.

Texnologiyalarni joriy etish: GPS tizimlari va avtomatlashtirilgan transport boshqaruvi, IoT texnologiyalar yordamida mahsulot harorat va namligini doimiy nazorat qilish.

Ekologik toza transportlardan foydalanish: elektr va bioyoqilg‘ida ishlaydigan transport vositalarini ko‘paytirish;

Mavsumiy rejalashtirish: mahsulotlarni yetkazib berish mavsumiy talab va taklif asosida rejalashtirish;

Kadrlar tayyorlash: logistika sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Qishloq xo‘jaligi transport logistikasining samaradorligi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘zining mavsumiyliги, buziluvchanligi va katta hajmda yetishtirilishi bilan boshqa mahsulotlardan farq qiladi. Shu sababli, ushbu mahsulotlarni o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish uchun transport logistikasining har bir bo‘g‘ini uzluksiz va samarali ishlashi zarur.

Maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashishda avtomobil, temir yo‘l, havo va dengiz transportlarining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi. Har bir transport turi o‘ziga xos sharoit va talablarni qondirishga mo‘ljallangan. Shuningdek, infratuzilma yetishmovchiligi, transport vositalarining eskirganligi, yoqilg‘i narxlarining beqarorligi va malakali kadrlar yetishmasligi kabi asosiy muammolar yoritildi. Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi:

1. Infratuzilmani rivojlantirish: Zamonaviy yo‘llar, logistika markazlari va sovutgichli omborlar barpo etish.

2. Texnologiyalarni joriy etish: Blokcheyn texnologiyalaridan samarali foydalanish.

3. Ekologik barqarorlik: Yoqilg‘i sarfini kamaytirish va ekologik toza transport vositalaridan foydalanish.

4. Kadrlar tayyorlash: Logistika menejerlari va texnik mutaxassislar uchun maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish.

Bundan tashqari, logistika jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun transport zanjirlarida avtomatlashtirilgan tizimlar va sun‘iy intellekt algoritmlaridan foydalanish zarur. Bu nafaqat transport xarajatlarini qisqartiradi, balki mahsulotlarning sifatini va iste‘molchilarga o‘z vaqtida yetkazilishini ta‘minlaydi.

Kelajakda qishloq xo‘jaligi transport logistikasini yanada takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot yetkazib berish imkoniyatlari kengayadi. Samarali transport logistikasi tizimi

qishloq xo‘jaligi sohasida barqaror rivojlanishni ta‘minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning kaliti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligida transport logistikasi nafaqat mahsulotlar yetkazib berish vositasi, balki butun qishloq xo‘jaligi qiymat zanjirining muhim qismidir. Shu bois, ushbu sohani modernizatsiya qilish, texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolishi zarur.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. Umarov LL., Shukurova N.S. Transport va logistika xizmatlarining eksportni rivojlantirishdagi roli". O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali
2. . Rodrigue, J.P. "The Geography of Transport Systems". 5th Edition. New York: Routledge, 2021
3. G.N. Umarova. Logistika. O'quv qo'llanma. T.: 2016.
4. Contribution of Transportation to the Economy: Final Demand Attributed to Transportation. [https:// data. bts. Gov/stories/s/Transportation-Economic-Trends Contributionof](https://data.bts.gov/stories/s/Transportation-Economic-Trends-Contributionof)